ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

not only concepts that have a name, but also concepts that do not have a name, can indicate a case. And its «coverage» depends on demand and need.

Резюме. Две разные культуры никогда не пересекаются полностью, точно. Причина этого в том, что у каждого свой интернациональный характер. Кодовое вмешательство служит средством общения в обществе между различными социальными группами, специалистами и людьми в условиях двуязычия. На этом этапе стоит сказать, что не только понятия, имеющие название, но и понятия, не имеющие названия, могут указывать на случай. А «покрытие» его зависит от спроса и потребности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RLARIDA BADIIY SAN'ATLARNI QO'LLASH MAHORATI

Eshniyozova Gulhayo Hamroqul qizi,
Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ma'lumki, she'riy san'at badiiy asarda ifodalangan g'oyalarni yanada jonli va ta'sirli ifodalashga, lirik va epik timsollarni yanada yorqinroq gavdalantirishga, she'r, misra, bandlarning so'z nafisligi, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan. She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan bog'liqligi sanaladi[1].

Sharq mumtoz poetikasining tarkibiy qismlaridan biri, nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha ilmi badi bo'lib, uning asosini mumtoz she'riyat, ba'zida nasrda keng ishlatiladigan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo'llanilayotgan badiiy san'atlar tashkil qiladi.

Turkiy tillarda ilmi badi masalalari aks etgan asar sifatida Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul balog'a» asarini keltirish mumkin. Risolaning uchinchi qismi badiiy san'atlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda 97 san'at turi haqida so'z boradi. Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy vositalarning lingvopoetik xususiyatlari tadqiqi doirasida N.To'lanova shunday bo'lsada badiiy san'atlarning lisoniy-uslubiy tahlilini[2], G.Keldiyorova badiiy nutqda antiteza hodisasini[3], G.Rixsiyeva esa she'riy matndagi gaplarning aktual bo'linishida anaforalar o'rnini[4] o'rgangan. Shu bilan birga G.Muhammadjonova esa badiiy nutqda leksik birliklar, jonlantirish, epitet, o'xshatish va

[1] Hojiahmedov A. Mumtoz qofiya va she'riy san'atlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1998. – B 4.
[2] Тўланова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили (Ш.Раҳмон, А.Ўктам, И.Мирзо шеърияти тили мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 19 б.
[3] Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.
[4] Рихсиева Г. Шеъриятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафоралар ўрни: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 25 б.

metaforaning namoyon bo‘lishi, ulardan yuzaga keladigan samara – badiiylik masalalarini tahlil qilgan[1]. Halima Xudoyberdiyeva she’riyatining badiiy xususiyatlari, poetik obrazlar talqini kabi masalalarning adabiyotshunoslik aspektidagi tadqiqi M.Hamidova, M.Xalovalar tomonidan amalga oshirilgan[2]. D.Yusupova shoira Halima Xudoyberdiyeva she’riyati lingvopoetik xususiyatlarini monografik tarzda tadqiq qilgan[3]. Biroq shoira ijodidagi fonetik, leksik, morfologik sath bilan bog‘liq badiiy san’atlarning lisoniy asoslari,sintaktik figuralar tahlili monografik planda o‘rganilmagan. Ushbu holat Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida lisoniy vositalarning lingvopoetik imkoniyatlarini tadqiq qilish zaruratini ko‘rsatadi. Halima Xudoyberdiyeva she’riyati o‘ziga xosligi bilan boshqa ijodkorlar she’rlaridan farq qiladi. Shoira ijodini varaqlar ekansiz undagi ma’nolar olami sizni befarq qoldirmaydi. Shoira she’rlaridagi lafziy, ma’naviy, harfiy san’atlar ham shu darajada mohirona qo‘llanganki, ularni tahlil qilish barobarida ko‘plab yangi ma’nolarni kashf qilamiz. Lafziy san’atlar o‘z ichiga iltifot, mukarrar, muvozina, nido, qaytariq, saj, tasdir, takrir, tasbe, ta’did, tarse’ kabi bir qancha san’atlarni tashkil qiladi. Ma’naviy san’atlar o‘zi ichiga mubolag‘a, tafrid, tashbeh, istiora, tajohil ul orif, talmeh, tashxis, husni ta’lil, irsoli masal, ruju, intoq kabi turlarga bo‘linadi. Harfiy san’atlar esa tanosib, tazod, husni maqta, husni taxallus, tajnis va shu kabi bir qancha san’atlardan tashkil topadi. Shoiraning «Bir qadam oldinga», «Bir xazinaday qolurman», «Hamqishloqlarim», «Ilk xato», «Endi u...», «Uzuk haqida», «To‘rtlik», «Sizning ko‘nglingizni izlab», «Yolg‘iz boshni”, «Marhumning aytganlari», «O‘rtarlik», «Bu o‘ylar», «O‘lmas Pushkin yonida», «Shirinlik», «Dorilomon kunlar», «Bir daqiqa», «Kemalar tikka yo‘l olsin.», «Juft sho‘xchan ko‘z», «Meni unga...», «To‘g‘on» va shu kabi qator to‘rtliklarida yuqoridagi she’riy san’atlarning ancha qismi uchraydi va quyida guruhlarga bo‘lib tahlil qilinadi.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida badiiy san’atlar shakl-ma’no-vazifa birligida tilning lisoniy imkoniyatlarini namoyon qiladi. Masalan, quyidagi she’rida takrir san’ati (anafora) qo‘llangan bo‘lib, undagi shaklga xos bo‘lgan ohang, ritm, musiqiylikni ta’minlashga xizmat qilmoqda:

Shunchaki yozmoqqa ko‘ngil to‘lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo‘lim.
Shunchaki yozmoqqa chidab bo‘lmaydi,
Shunchaki yozmoq, bu – shoirga o‘lim. («Shunchaki»)

Shunchaki yozmoq birikmasi mazkur she’r tarkibida o‘ziga xos ma’no ifodalamoqda, ya’ni biror ishni qo‘l uchida bajarish, nomiga yozish, ko‘ngil uchun biror ishni qilmoq ma’nolarini ifodalaydi. Shoira mazkur birikma vositasida takrir san’atini hosil qilarkan, she’rni ermak uchun yozmaslik kerakligini uqtiradi va misra boshidagi takrorlar, avvalo, badiiy *shakl* (ohangdoshlik)ni yuzaga keltirmoqda, natijada *shunchaki, nomiga, qo‘l uchida* yozmaslik zarur degan *ma’no* ifodasi yuzaga kelmoqda. Shakl musiqiylik va ta’kidni kuchaytirish vazifasini bajargan. Muallif «shunchaki yozmoq – o‘lim», – deganda *shunchaki yozmoq* va *shunchaki* so‘zlarining semantik ma’nosini aniq ochib berishga erishgan. Ushbu takrorlar she’riy matnda muallifning ta’kidini, muhim masalaga berilayotgan urg‘u va shoira sifatidagi xarakterini ochib berish vazifasini bajarmoqda.

Ma’lumki, o‘zbek tilida o‘xshatishlar *kabi, singari, yanglig‘, qadar, xuddi, naq, go‘yo, misoli, misli, bamisoli, bamisli, monand, teng, o‘xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo‘lmoq, bir, aynan, o‘zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki* va boshqalar leksik vositalar; *-day (-dek), -dak (-tak), -dag‘ (-dog‘), -dayin, -dan, -dir, -namo, -simon, -ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, chalik, -chasiga)* kabilar grammatik vositalar yordamida hosil qilinadi. Quyida shoira ijodiga mansub bo‘lgan tashbeh san’atining yuksak namunalarini kuzatamiz.

Bu dunyoda mening *kabi* g‘amdan barpo yo‘q,
Tog‘*day* g‘amin til uchiga chiqarmas tog‘ yo‘q.
Hech kim men*dek* o‘z ko‘z yoshin selida oqmas,
Yerda men*dek* gurros solib yig‘lar daryo yo‘q. («Tanlangan asarlar»)

Olma sabog‘i*day* ingichka bo‘yin,
Goh yetib, goh yetmay ko‘rmadik to‘yin.
O‘lmasaydi... buyuk bo‘lardi tayin,
Yig‘im o‘layotgan bolalar uchun! («Saylanma»)

Shoira she’rlarida tashbeh san’atini hosil qiluvchi *-day, -dek* kabi vositalar o‘xshatish, qiyoslash ma’nosini ifodalash bilan bir qatorda badiiy-estetik vazifa ham bajarib kelmoqda. «Shoirning mahoratini, xususan, uning tasavvur va xayol olamining boy yoki qashshoqligini ko‘rsatuvchi badiiy vositalardan biri o‘xshatishdir. Biror narsa yoki hodisaning xususi-

[1] Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 23 б.

[2] Ҳамидова М. Ҳалима Худойбердиева лирикасининг бадиий хусусиятлари: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 56 б; Xalova M. Hozirgi o‘zbek ayollar she’riyatida qalb tasviri va talqini (H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, Z.Mirzo ijodi misolida): Filol.fan.dok (DSc) … diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – 79 b.

[3] Юсупова Д. Ҳалима Худойбердиева шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан.б.фалс.док (PhD) … дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – 52 б.; Yusupova D., Yuldasheva D. Halima Xudoyberdiyeva she’riyati lingvopoetikasi. Monografiya. – Buxoro, 2020. – 114 b; Yusupova D. O‘zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida metaforalar. – Buxoro, 2022. – 107 b.

yatini shu xususiyati bor boshqa narsa yoxud hodisa orqali tasvirlash *o‘xshatish* yo *tashbeh* deb ataladi»[1]. Badiiy san’at turlaridan biri bo‘lgan o‘xshatish san’atida *-dek -day* qo‘shimchalari eng faol hisoblanadi. Shoiraning she’rlarida ham ushbu qo‘shimchalarning faol va unumli qo‘llanishi kuzatiladi.

Taqdir ulaganda umrlar zanjirin,
Nigohda ro‘para bo‘ldik ikkimiz.
Tushunmay yashirin qalblarning sirin,
Hissiz, yo‘l boshidan birga tushdik biz.

Mag‘rur *qushday* erkin edim va lekin,
Shuningdek, senga ham berolmadim qalb.
Tushday o‘tib ketdi bugun hammasi,
Yurakni foydasiz o‘rtamoq nechun.

Nurli *tong* oqarar, *tun* bo‘lar oxir,
Senga tilaklarim shu *tong kabi* oq.
Qiziq, goh baxting ham men uchun og‘ir,
Baxtsizliging esa yana og‘irroq!
(«Taqdir ulaganda»)

Ushbu she’rida Halima Xudoyberdiyeva insonlar o‘rtasidagi taqdir va hissiy bog‘lanishlarni teran tasvirlaydi. Jumladan, *taqdir ulaganda umrlar zanjirin* jumlasida umrlarning o‘zaro bog‘liqligini, bir insonning boshqa bir inson bilan bo‘lgan munosabati taqdir tomonidan belgilanganligini ta’kidlaydi. *Nigohda ro‘para bo‘ldik ikkimiz* misrasida ikki inson o‘rtasidagi kuchli hissiy munosabat va uzviylik, nigohlar orqali qalbning anglanishi betakror ifodasini topgan. *Tushunmay yashirin qalblarning sirin* jumlasida esa ichki his-tuyg‘ularning botiniyligi, qalb tubidagi sirlar anglanishining mushkulligi zo‘r badiiy tasviriga ega bo‘lgan. Umuman olganda, she’r sevgi, taqdir va insonlar o‘rtasidagi chuqur, murakkab munosabatlar, shuningdek, insonning taqdirining yo‘rig‘i, hayot noaniqliklari, lirik qahramonning ichki kechinmalari badiiy ifodasidir. *Qushday erkin, tushday o‘tib ketdi*, *tong kabi oq* birkmalaridagi *-day, kabi* o‘xshatish vositalari tashbeh san’atining yuzaga kelish omili bo‘lib xizmat qilgan. Tajribadan ma’lumki, o‘xshatishda bir predmet yoki harakat-holat belgisi ikkinchi predmetning aniq bir belgisiga qiyoslanadi. Ushbu o‘rinda o‘xshatish, asosan o‘xshayotgan predmetda qoladi. Yuqoridagi birkmalarda *erkin, o‘tib ketdi* o‘xshayotgan predmet, harakat-holat bo‘lib, *qush, tush* o‘xshatilayotgan predmet va harakat-holatdir.

Senga tilaklarim shu tong kabi oq misrasidagi *kabi* ko‘makchisi o‘rnida *-day* grammatik vositasini ma’nodosh sifatida qo‘llash mumkin. Shuningdek, she’riy qatordagi *kabi* ko‘makchisi – leksik sath birligi, ma’noviy nomustaqil, umumlashgan grammatik ma’noli, shaklan morfologik o‘zgarmas, leksoid ko‘rinishli, yakka qo‘llanishli, sintaktik bog‘lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik[2]. Bunday leksik va grammatik vositalar yordamida hosil bo‘lgan badiiy san’atlar poetik nutqdagi fikrning obrazliligini ta’minlashga va bo‘yoqdorligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

She’r tahlilidan yana shuni anglash mumkinki, badiiy san’atlar aksariyat hollarda bir-birini taqozo qiladi. Yuqoridagi misralarda tashbeh san’ati qo‘llangan bo‘lib, obrazlilikni ta’minlashda *Nurli **tong** oqarar, **tun** bo‘lar oxir* misrasida tazod san’ati yordamga kelgan.

Shodumon bog‘ga yugurdim, tongni mushtoq ottirib,
Qirqta qilgan sochlarimni *tilla suvda* qotirib,
Navro‘zona shavq-la kuylay *g‘unchani uyg‘ottirib*,
Va so‘zlakim: «*Quyosh keldi, g‘am oyini bottirib*»,
G‘am na qilsun ul *munavvar* sham’i *shabiston* oldida. («Navro‘z»)

Mazkur she’riy misralarda muvozana, tazod kabi badiiy san’at turlari yuzaga kelgan. Vazn (o‘lchov) jihatidan tenglik ma’nosini ifodalovchi muvozana so‘zi bilan ataluvchi ushbu san’at she’r misralaridagi barcha so‘zlarning vazn (o‘lchov) jihatidan o‘zaro teng bo‘lishini nazarda tutib, ushbu bandda *ottirib, qotirib, uyg‘ottirib, bottirib* so‘zlari ushbu san’at namunasini hosil qilgan. Tazod so‘zi zid qo‘yish, qarshilantirish ma’nolarini ifodalaydi. Shu so‘z bilan ataluvchi she’riy san’at esa baytda ma’no jihatidan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta’sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi[3]. She’rda *shodumon* va *g‘am* hamda *munavvar, shabiston* so‘zlari o‘zaro zidlik ma’nosi asosida qarshilantirilgan.

She’riyatda obrazlilikni tasvirlovchi, fikrni sodda va ravon bayon etuvchi vosita sifatida badiiy vositalarning o‘rni muhim. Ushbu stilistik vositalardan biri metaforadir. «Metafora predmet va hodisalar orasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida ulardan birini ifodalagan so‘z bilan ikkinchisini ham ifodalash zaminida vujudga keladi. Metaforani tabiatiga ko‘ra ikki turga bo‘lish mumkin: 1) til metaforasi; 2) badiiy metafora»[4]. Halima Xudoyberdiyeva lirikasini kuzatar ekanmiz, uning so‘z qo‘llash mahorati, ya’ni so‘z va birikmalarni metaforik qo‘llash orqali tilning estetik vazifalarining nihoyatda keng, rang-barang va xilma-xil ifodalaganligini ko‘rish mumkin. Shoiraning

[1] Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 65; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 127.

[2] Замонавий ўзбек тили: Морфология. (Муаллифлар жамоаси). I жилд. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008. – Б. 438.

3 Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз қофия ва шеърий санъатлар. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 80, 105, 12.

[4] Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 59.

mazkur she'rida *tilla suv, g'unchani uyg'ottirib, quyosh keldi, g'am oyi* so'zlari orqali metafora hosil qilib, obrazlilik va ta'sirchanlik ta'minlangan. Metafora har qanday uslubda uchraydi, ayniqsa, she'riy matndagi o'rni beqiyos.

Shoira she'riyatda metafora kabi metonimiya va sinekdoxa deb ataluvchi ma'no ko'chish metodlaridan ham keng ishlatadi. Sinekdoxa hosil qiluvchi va hosila ma'nolari denotatining biri butun, ikkinchisi, albatta, uning bo'lagi bo'lishi ma'lum. Metonimiyada esa hosil qiluvchi va hosila ma'no denotatlari alohida-alohida narsa hamda voqelikdan iborat, ular butun-bo'lak munosabatiga ega emas. Sinekdoxalarda so'zning leksik ma'nolaridan birida ifodalangan bo'lak, ikkinchisida ifodalangan butunning muhim belgisi bo'ladi[1].

Badiiy asar tilini o'rganishda ijodkorning o'ziga xos badiiy vositalari aniqlanadi va uning badiiy mahorati, o'ziga xos uslublari namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday badiiy asar tili ilmiy izlanishlar jarayonida tadqiq etilayotganda ijodkorning qaysi tasviriy vositalardan, xususan, xalq jonli tili boyliklaridan foydalana olish imkoniyatlari tadqiqotning diqqat markazida bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Halima Xudoyberdiyeva juda mohirona usulda yozgan she'rlari bilan xalqimiz qalbiga yo'l topdi. Nozik hislarni o'zida mujassam etgan shoira ulkan tug'ularni ham she'rlariga jo qilgan. She'riy san'atlar esa ushbu otashqalb shoiraning ijodida jilolangan ma'nolar maxzanini ochish uchun bir yo'l vazifasini bajaradi. Yuqoridagi tahlillar ham Halima Xudoyberdiyevaning yuksak mahoratini, o'tkir qalam sohibasi ekanligini yana bir bor yorqin dalili desak, yanglishmaymiz. Shoira ijodida eng ko'p qo'llangan san'atlar tazod, tashbeh, istiora, tanosib, nido kabi bir qancha san'atlar qo'llangan. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatda nozik yulduz bo'lib keldi va oxirida porloq quyosh kabi tark etdi. Shoira ijodida qo'llanilgan she'riy san'atlar juda ko'p, yuqoridagi tahlillar esa dengizdan bir tomchi, xolos. Shoira badiiy san'atlar orqali, ulkan tuyg'ular, sof qalb, sammiy muhabbat, yurt va el ravnaqi, tabiat manzalari -yu, beg'ubor yoshlik kabi qator mavzularni o'z she'rlarida ifodalagan.

Rezyume. Bu maqolada iste'dodli, mahoratli shoira, go'zal dunyoqarash va o'tkir anglash qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkor Halima Xudoyberdiyyeva she'riyatida qo'llangan ma'naviy san'atlar va ularning tahlili va bu birliklarning badiiy-estetik vazifalariga kichik tajribalar yordamida to'xtatilgan va ilmiy asosdagi xulosalar keltirilgan. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatini lisoniy tahlil qilish jarayonida she'riy misralardagi emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklar aniqlandi va ular ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilganligi haqida mulohaza yuritish imkoniyati paydo bo'ldi. Quyida Halima Xudoyberdiyyeva she'riyatining leksik-poetik xususiyatlarini shu asosda tahlil etishga harakat qilamiz. Ushbu maqolada, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida qo'llangan ma'naviy san'atlarning til va badiiyat mushtarakligi haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

Resyume. Below is an analysis of the artistic arts used in the work of the poet Halima Khudoyberdiyeva, who expressed elegant feelings through beautiful words in verses. But poetic art has not been deeply studied in the work of the poetess and her poems. The main goal of the article is to analyze and reveal the documents of poetic art in the poet's poems, to show the unique place of these poetic arts in the poet's work, and to analyze their content. the analysis is checked.

Резюме. В этой статье представлены духовные искусства, используемые в поэзии Халимы Худойбердиевой, талантливой, искусной поэтессы, творца с прекрасным мировоззрением и острым восприятием, и их анализ, а также художественно-эстетические функции этих единиц, которые подвешены с помощью небольших экспериментов и научно обоснованных выводов. В процессе лингвистического анализа поэзии Халимы Худойбердиевой были выявлены лексические единицы, воплощающие эмоционально-экспрессивную семантику поэтических строк, и стало возможным размышлять о том, в какой степени они служили художественно-эстетическому замыслу творца. Ниже мы попытаемся проанализировать лексические и поэтические особенности поэзии Халимы Худойбердиевой на этой основе. В этой статье высказываются мысли и комментарии об общности языка и искусства духовных искусств, используемых в поэзии Халимы Худойбердиевой.

[1] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 56.